



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning

20__-20__-o'quv yilida 11-sinflar
uchun ona tili fanidan IV chorak

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 11-sinf ona tili fanidan IV chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Maqolni o‘rinli qo‘llash	1		
2.	Maqolni o‘rinli qo‘llash	1		
3.	Tasviriy ifoda – ko‘tarinki nutq vositasi	1		
4.	7-nazorat ishhi	1		
5.	Xato va kamchiliklar ustida ishlash	1		
6.	Ortiqcha qo‘shimchalar	1		
7.	Qo‘shimchalarni tanlash	1		
8.	Nutqda shakl va mazmun mosligi	1		
9.	Nutqda shakl va mazmun mosligi	1		
10.	Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash me‘yorlari	1		
11.	Matn va lug‘at bilan ishlash	1		
12.	Mustahkamlash	1		
13.	Ish qog‘ozlari ustida ishlash	1		
14.	Ish qog‘ozlari ustida ishlash	1		
15.	8-nazorat ishi	1		
16.	Yil davomida o‘tilganlarni takrorlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Maqolni o‘rinli qo‘llash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: talaffuz va imlo me’yorlari, so‘z qo‘llash me’yorlari, nutqning grammatik va punkt tuatsion me’yorlariga oid mavzular ta’limiy-didaktik topshiriqlar berish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, darsda o‘quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirish savodxonligini oshirish hamda nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish) va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishiga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, metodlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriqlarning bajarilish yechimi hamda matn va lug‘at ustida ishlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berish.

Rivojlantiruvchi: o‘qish va mehnat jarayonida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda fikrini mustaqil ravishda ifoda etadigan, og‘zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo‘lgan, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish.

FK-fanga oid kompetensiyalar

FK1- nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish)

FK2- lingvistik kompetensiya (uslubiyatga oid)

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, takrorlash va umumlashtirish darsi, amaliy mashg‘ulot darsimunozarali (interfaol) dars.

Dars uslubi: aqliy hujum, an’anaviy uslub, tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni: Maqol – xalq og‘zaki ijodi janri, shu bilan birga, til birligi ham. U – ixcham, mazmuniy va ta’sirchanlik ko‘lami baland ifoda. Maqollar biror nutq vaziyatiga xos bo‘ladi, shuning uchun, ko‘pincha, bir-birini inkor etadi:

Yaxshilik qil, umidvor bo‘l. – Yaxshilik qil – unut.

Maqollar evfemizm vazifasini ham bajaradi.

14.1-mashq. Matn bilan tanishing. Maqollarni aniqlang va ularning mos izohlarini toping. Matn badiiyligida maqollarning qanday o'zni borligi xususida fikrlashing.

„**Ko'rmaganning ko'rgani qursin**“, – deganlari shu-da... El og'zida „**Ot bosgan joyni toy bosadi**“, degan naql yuradi. Shunga ko'ra Tursunali ot bo'lsa, shogirdi toy misol edi. Qo'polroq tarzda tavsif berilsa, Tursunali tupurgan-u, u yalagan edi. Ustozi qamalganida uning ham paytavasiga qurt tushdi. Har holda ustoz oshni o'zi oshala gani bilan unga yalatib turardi. Yangi direktor Yaratganga emas, rahbarlariga shukur qiladi: hartugul o'sha laganlarni olishdi-yu, yalaganlarga marhamat darvozalarini ochishdi. Ular anglashmadiki, yaloqxo'rlar ning nafsi oshalaganlardan ham buzuqroq bo'ladi. „**Oshalagan qorni to'ygunicha yeydi, yaloqxo'r esa ko'zi to'ygunicha**“. Ko'zning hech qachon to'ymasligi esa barchaga ayon. Xususan, kattalarning xizmatini qilib yurib, fe'l-atvorlarini bilib olgan Toshboltaga ham ma'lum bu. Shu sababli qizi tilga olinganda uning ko'zlarini o'yib olgisi kelgan bo'lsa-da, o'z aravasini o'zi tortib ketishga qurbi yetmasligini bilgani uchun o'zini tiydi. „Yaloqxo'r“ deb yangi direktordan nafratlangani bilan tirjayib, unga qulluq qilib turishga majbur edi... – Ming qilsayam, urug' urug'-da, – dedi. – **Et bilan tirnoqni ayirib bo'lmaydi...** (T. Malik)

Yechim: mashqni bajarishda Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedovlarning „Hikmatnoma“ asaridan foydalanish zarur. Matnda qo'llangan maqollarning izohiga e'tibor qaratamiz:

Ko'rmaganning ko'rgani qursin – majoziy ma'noda ozgina boylikka yoki muvaffaqiyatga erishgach, o'zining avvalgi ayanchli holini unutib, shishinib, bosar-tusarini bilmay qoladigan, boshqalarni mensimay, „oyoq uchi“da ko'rsatadigan takabbur odamlarga nisbatan achchiq kinoya tarzida qo'llaniladi.

Ot bosgan joyni toy bosadi – ota-bobolarning g'ayratli, dovyurak, katta-katta ishlarga qo'l uradigan, hech narsadan qaytmaydigan, erinmaydigan odamlar edi-ku, nega endi sen unday qilmayapsan?! Erinyapsanmi yo qo'rqyapsanmi; qo'rqma ham, erinma ham! Yengil-yelpi ishlar bilan shug'ullanib, „turmushimni bir amallab o'tkzamsam bo'ldida, menga nima, jon koyitib?!“ degan fikrni xayolingga ham keltirma, og'irroq, kattaroq ishlarni ko'zla, shuning harakatida bo'l! – degan ma'noda nasihat qiladilar.

Oshalagan qorni to'ygunicha yeydi, yaloqxo'r esa ko'zi to'ygunicha – ya'ni qorni och odam qorni to'ygunicha yeydi va to'yadi, yaloqxo'r, ko'zi och odam esa ko'zi to'ygunicha yeydi, qorni to'ysa ham, ko'zi hech qachon to'ymaydi, – degan ma'noda qo'llaniladi.

Et bilan tirnoqni ayirib bo'lmaydi – astoydil ayiraman desa, tirnoqni etdan ayirish mumkin, lekin hech kim o'laqolsa bunday qilmaydi. Chunki tirnoqni etdan ayirgandan ortiq og'riq dunyoda bo'lmasa kerak. Maqolda ota-onani bolalardan, bolalarni ota-onadan, tug'ishganlar va chin do'st-u qarddonlarni bir-biridan ayirib bo'lmasligi, ayirish qiyinligi, ayirilgan taqdirda esa ularning qattiq iztirob chekishlarini majoziy ma'noda ifodalamoq uchun shunday deyilgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: mavzu bo'yicha nazariy savollarga javob berish, berilgan matndan mavzuga oid misollarni aniqlash va tahlil qilish, mustaqil ravishda 3–4 ta gap tuzib, unda yangi mavzu qoidasini qo'llash, juftlikda ishlash orqali o'zaro savol tuzish va javob berish.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Maqolni o‘rinli qo‘llash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: talaffuz va imlo me’yorlari, so‘z qo‘llash me’yorlari, nutqning grammatik va punkt tuatsion me’yorlariga oid mavzular ta’limiy-didaktik topshiriqlar berish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, darsda o‘quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirish savodxonligini oshirish hamda nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish) va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishiga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, metodlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriqlarning bajarilish yechimi hamda matn va lug‘at ustida ishlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berish.

Rivojlantiruvchi: o‘qish va mehnat jarayonida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda fikrini mustaqil ravishda ifoda etadigan, og‘zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo‘lgan, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish.

FK-fanga oid kompetensiyalar

FK1- nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish)

FK2- lingvistik kompetensiya (uslubiyatga oid)

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, takrorlash va umumlashtirish darsi, amaliy mashg‘ulot darsimunoazarali (interfaol) dars.

Dars uslubi: aqliy hujum, an’anaviy uslub, tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

14.3-mashq. Matnlardagi tegishli gaplarni berilgan maqollarning mosi bilan almashtiring. Fikr mazmunida yuzaga kelgan farqni izohlang.

1. – Yolg‘izligim, yakkaligim kinga xalal beryapti, ena?

– *Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘I chiqmas*, bolam, bunday shumshayib o‘tiraverganing bilan ish o‘zo‘ zidan yurishib qolmaydi-ku. Oshna-og‘aynilaring, yor-do‘stlaring bilan kengash, birgalikda harakat qil.

2. Bir o‘rmonda bolta paydo bo‘lib, daraxtlarga qirg‘in keltiribdi. Og‘ochlar unga qarshi chora topolmay, qari Emandan maslahat so‘rashibdi. „Bolta deganlaring nima o‘zi? U nimadan ishlangan?“ – deb so‘rabdi Eman. „Bolta – temirdan yasalgan bir matoh“, – deb javob beribdilar. „O‘zi-ku, temir ekan, dastasi-chi? Dastasi ham temirdanmi?“ – deb so‘rabdi Eman. „Yo‘q, – debdilar, – dastasi og‘ochdan, o‘zimizdan“. ***O‘zingdan chiqqan baloga qayga borasan da‘voga***, – degan ekan Eman.

3. Jolinus hakim bir kimsa donishmand bir zotning yoqasidan tutib, uni haqorat qilayotganini ko‘rdi va shunday dedi: – ***Dono bilan nodon bir buloqdan suv ichmas.***

14.4-mashq. Maqollar juftligini o‘qing. Ularning bir-birini inkor

etishi yuzasidan „Fikrlar jangi“ni tashkil qiling va o‘z mulohazangizni bayon eting.

1. Gap bilan kerilma, ish bilan keril. – Ish bilganga bir tanga, gap bilganga ming tanga.

2. Tekin bo‘lsa, mix yut. – Tekin tomoq tish sindirar.

3. Yomon ko‘rgan kishingga yomon narsangni ber. – Yomonlikka yaxshilik mard kishining ishidir.

4. Har kim boshiga yog‘gan qorni o‘zi kuraydi. – Ko‘pdan quyon qochib qutulmas.

14.5-mashq. Rasmlar asosida yil fasllari bilan bog‘liq maqollar topib yoziladi.

Yechim:

1. Yoz mevasi – qishga dori. Yozda g‘amlangan oziq qishga darmondori bo‘lar. Yozda mevaga to‘ysang, qishda doriga hojat yo‘q.

2. Qishning qori mo‘l rizq-ro‘z keltirar. Qor yog‘di – don yog‘di. Qishning qori – bug‘doyning zo‘ri.

14.6-mashq. „Mening taqdimotim“ tanlovi uyushtiriladi.

Yechim: maqollardan ba‘zilarining qanday vaziyatlarda qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz.

1. Uzoq bo‘lsa ham, yo‘l yaxshi, yomon bo‘lsa ham, el yaxshi – inson faqat jamiyatda, insonlar orasidagina yuksalib, haqiqiy inson bo‘la oladi. Yaxshimi, yomonmi har bir inson bizga hayotda o‘ziga yarasha dars, tajriba beradi. Inson uchun eng muhimi shu: insonlar orasida bo‘lish. Yoki kengroq ma‘noda tushunadigan bo‘lsak, hayotda inson uchun juda muhim bo‘lgan narsadan noligan, shikoyat qilgan insonlarga nisbatan shu maqol qo‘llanadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: mavzu bo‘yicha nazariy savollarga javob berish, berilgan matndan mavzuga oid misollarni aniqlash va tahlil qilish, mustaqil ravishda 3–4 ta gap tuzib, unda yangi mavzu qoidasini qo‘llash, juftlikda ishlash orqali o‘zaro savol tuzish va javob berish.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uygua vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

32 listdan iborat ona tili fanidan 11-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislari**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**